



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ



БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил-10 июнь

Бухоро - 2023

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2023 йил – 10 июнь

Бухоро - 2023

- 2 -

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2023 йил 10 июнь** кунини **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГИ ДАВРГАЧА)** мавзусидаги халқаро микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан кизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фаилари доктори

Х.Х.Тўраев

Таҳрир ҳайъати ва аъзолари:

Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фаилари доктори, профессор	О.Х.Ҳамидов
Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, физ-мат ф.д (DSc), проф	Т.Ҳ.Расулов
Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудирини	Ф.У.Темиров
Бухоро давлат университети профессори, тарих фаилари доктори	И.С.Иноятов
Бухоро давлат университети профессори, тарих фаилари доктори	Ш.А.Ҳайитов
тарих фаилари номзоди, доцент	М.Б.Қурбонова
тарих фаилари номзоди, доцент	М.И.Ниязова
тарих фаилари номзоди, доцент	Ф.Х.Бобожонова
тарих фаилари бўйича фалсафа доктори (PhD)	И.Н.Наимов
тарих фаилари бўйича фалсафа доктори (PhD)	А.Ҳ.Болтаев
Археология ва Бухоро тарихи кафедрасини катта ўқитувчиси	О.И.Ражабов
Археология ва Бухоро тарихини кафедрасини ўқитувчиси	Ш.Ў.Носиров

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедрасини мудирини

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедрасини ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедрасини ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2023 йил 15 майдаги
7 – сонли қарорини билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгар*

Бобождонова Феруза	XIX аср охири-XX асрнинг биринчи чорагида Бухорода мактаб таълими	280
Мамадалиев И.А. Аринова Н.И.	«БУХАРА» – В КОНТЕКСТЕ ИМПЕРСКИХ ПРОТИВОРЕЧИЙ	283
Лола Полвоновна Мухамеджанова Саодат Сатторовна Жабборова	1917 ЙИЛ БУХОРОДАГИ АПРЕЛЬ ВОҚЕАЛАРИГА ДОИР	287
Abduraimova Manzura	BUXORO AMIRLIGIDA KONCHILIK SANOATINING PAYDO BO'LISH JARAYONLARI	294
Tilabjonova. S.Sh	BUXORO XONLIGI ASHTARXONIYLAR SULOLASI DAVRIDA : ELCHILIK MUNOSABATLARI	297
Beknazarov Javohir	ASHTARXONIYLAR SULOLASINING SHAJARASIGA DOIR AYRIM FIKR MULOHAZALAR.	300
Umidjon Baqoyev	AMIR SHOHMUROD - ILM-FAN VA MADANIYAT HOMOISI	305
Homidjonov Nodir	BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA O'RTASIDA XIX ASRNING 30-50 YILLARDA OLIB BORILGAN MUNOSIBATLAR	308
Do'smuratov Raximjon	BUXORO XONLIGIDA MADANIY HAYOT	311
N.A. Jumayeva Samandarova Nasiba	BUXORO HOVUZLARI TARIXI XUSUSIDA	313
Ne'matov Mirshod	BUXORODA ASHTARXONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRI ME'MORCHILIGI	316
Orifjonov Xaitboy	BUXORA AMIRLIGIDA MANG'ITLAR SULOLASI DAVLAT BOSHQARUVI	318
Umarov Asadbek	BUXORO XONLIGIDAGI SOLIQ SIYOSATI	321
Xudayberganova Laylo	BUXORO XONLIGIDA QUL SAVDOSI	323
Yuldashaliyeva O'g'iloy Ahmadov Ahmadjon	BUXORO AMIRLARINING ME'MORCHILIKKA QO'SHGAN HISSASI	325
Феруза Амонова	ОТАУЛЛА ХЎЖАЕВ ВА УНИНГ МАШХУР ЗАМОНДОШЛАРИ	328
Феруза Амонова	УСМОН ХЎЖА, ОТАУЛЛА ХЎЖАЕВ ВА ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ АЖДОДЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ ИҚТИСОДИЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ (ПҮЛАТХЎЖА ВА ҚОСИМХЎЖА ФАОЛИЯТИ МИСОЛИДА)	334
З.А.Адилбекова	АРХИВНЫЕ МАТЕРИАЛЫ О ВЗАИМОСВЯЗИ ГОРОДОВ КАЗАЛЫ И БУХАРЫ	339
Савриев Жасур	БУХОРО АМИР ВА АМАЛДОРЛАРИ ДАВРИДА, КАРМАНАДА БУНЁД ЭТИЛГАН САРОЙ ВА ЧОРБОҒЛАР ХАҚИДА.	345
Сойиб Раунов	БУХОРО АМИРЛИГИДА МАХАЛЛИЙ ЎЗИНИ - ЎЗИ БОШҚАРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.	349
Икромжон Азизов	XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШИДА БУХОРО АМИРЛИГИ ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ ЎРНИ	354
Назаров Фахриддин Зунунова Муминахон	ВКЛАД УЧЁНЫХ ТАДЖИКИСТАНА В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ БУХАРЫ В РОССИЙСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ	361
Холда Очилова	БУХОРО ХОНЛИГИ ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА БОЛА ТАРБИЯСИ БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАРДА ИСЛОМ ДИНИНИНГ ЎРНИ (ҚАРШИ БЕКЛИГИ АҲОЛИСИ МИСОЛИДА)	365

bo'lgan qul bozorlarining eng kattasi va gavjumi Buxoroda bo'lgan. Bu haqda elchi va sayyohlarning yozib qoldirgan asarlaridan ma'lumdir. Bozorda har xil mollar uchun maxsus joy bo'lgani kabi qul va cho'rilar uchun ham alohida joy belgilangan. Qul sotib oluvchi qulning yoshi, sog'ligi go'zalligi, din va mazhabi, baquvvatligi, millati hamda qo'ldan nima ish kelishi, xatto ichki kasalliklari, badanida biror toshmasi mavjud emasligini bilish uchun yechintirib ko'rilgan. Bu va bu kabi holatlar achinarli holatlardir. Qullikka tushgan qul yoki cho'rining hayotidagi eng baxtsiz va ayanchli davri uning dallol qo'lga tushgan kunidan boshlanar edi. Ular shunchalik vahshiy ediki, xatto qul sunniy mazhabiga mansub bo'lsa uni kaltaklab shia mazhabiga o'tkazar edi. Bundan tashqari qullarga bozorda zarur bo'ladigan 1015 ta forscha terminlarni majburiy tarzda yodlatar edilar. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, Buxoroda qul mehnatidan keng ko'lamda foydalanib kelingan. Qullardan ko'proq uy ishlari, savdo-sotiq ishlari, harbiy ishlarda foydalanishgan. Shuningdek qullardan sug'orish ishlaridan ham foydalanganlar. Xulosa qiladigan bo'lsak, xonlik iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo, shu jumladan, qullar savdosi tashkil etgan. Quldorlik Buxoro xonligi iqtisodiyotining muhim xususiyati edi. Xonlik Rossiya, Kavkaz va Eron kabi qo'shni mintaqalardan kelgan qullar uchun asosiy manzil bo'lgan. Buxoroda qullar turli etnik guruhlardan, jumladan, forslar, turklar, armanlar, cherkeslar va gruzinlar edi. Buxoro xonligida qul savdosi asosan hukmron elita tomonidan nazorat qilingan, ular quldorlikni o'z xo'jaligining muhim qismi deb bilgan. Qullar Buxoro bozorlarida sotib olinadi va sotiladi, ular ko'pincha qafaslarda sotish uchun ko'rsatiladi. Qulning narxi insonning yoshi, jinsi, sog'lig'i va malakasiga qarab o'zgarib turardi. Buxoroda qullar turli maqsadlarda, jumladan, dehqonchilik yerlarida mehnat qilish, harbiy xizmat va uy xizmatkori sifatida foydalanilgan. Ular ko'pincha noto'g'ri munosabatda bo'lishgan va ortiqcha ishlaganlar va ko'plari kasallik, to'yib ovqatlanmaslik va zo'ravonlikdan vafot etgan. Qul va cho'rilarining taqdiri, yashash sharoitlari juda og'ir va ayanchli ediki, ularga egasi xuddiki bir buyumdek muomila qilishar edilar. XIX srning oxiriga kelib qulchilik tugatilib, qullar rasman ozod qilinsalar-da, qullik mehnati ularning gardanida farz bo'lib qolaverdi.

BUXORO AMIRLARINING ME'MORCHILIKKA QO'SHGAN HISSASI

Yuldashaliyeva O'g'iloy Maxmudjon qizi BuxDU

Tarix va yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrasi

t.f.f.d., (PhD)

Buxoro amirligi ashtarxoniy sulolasidan so'ng o'zbek mang'itlari tomonidan asos solingan va Buxoro amirligi deb atashgan. Buxoro amirligi 1756-1920-yillarda mavjud bo'lgan. Amirlikning asoschisi o'zbeklarning mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Hakimbiy otaliqning o'g'li Muhammad Rahimbiy (1756-1758 yy) hisoblanadi.

Buxoro- Orta Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. Moddiy madaniyat va sanatning shunchalik xilma-xil va turli davriga oid yodgorliklari toplangan bunday shahar juda oz. Shahar sharq memorlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklarining boyligi jihatidan eng salmoqli orinlardan birini egallaydi.

Qadim zamonlardan beri ozining yuksak memorchilik obidalari, sanati bilan nom qozongan Buxoroda memorchilik amrlik davrida birmuncha yuksaldi, arxitektura inshootlari yanada takomillashdi.. Buning natijasida ko'plab jamoat binolari, jumladan, hammom, karvonsaroylar, ko'prik, sardoba, savdo rastalari va koplav boshqa inshootlar qurila boshladi, Monumental binolarning tarixi, qiyofasida o'zgarishlar yuz berdi.

Monumental arxitekturada, bir tomondan avval ishlab chiqilgan kompozitsion sxemalar izidan borish, ikkinchi tomondan esa mahalliy o'ziga xoslikning namoyon bo'lishi namoyon boladi. Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda Chor minor -Xalifa Niyozqul madrasasi (1807), masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurildi, Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda Amir Haydar onasiga atab maxsus madrasa, Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasini ham qurdirgan. Chor Minor yodgorligiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807- yilda qurdirgan. To'g'ri to'rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun ayvonli xonalar joylashtirilgan. Janubi - g'arb tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatli bo'lib, pastki qavatli madrasaga kirish uchun yo'lak vazifasini bajargan bolsa, tepadagi ikkinchi qavat kutubxona bo'lgan. Chor Minor sodda arxitekturasi hamda ajoyib kompozitsiyasi bilan XIX asr me'morchiligida original ko'rinishga egadir. Ahmad Donishning yozishicha, Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilmfan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Amir Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Kobul va boshqa shaharlardan ko'plab qo'lyozma kitoblarni olib kelishni buyurgan. Uning o'zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o'tgan. Amir Haydar "al-Favoid al-alfiya" nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan.

XIX asrda qurilgan me'moriy obidalardan biri Tursunjon madrasasi 1805—1806yillarda Otaliq gularida, Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi davrida bunyod etilgan. Uning qurilishini Buxorolik savdogar domullo Tursunjon boshlab beradi va ammo vafoti sababli, vasiyatiga ko'ra qurilishni Buxoro amiri Amir Haydar (1800—1806) tugatadi. Abu Abdurahmon Abdulloh Domla Tursunjonni savdogar ekanligi haqida ma'lumot bergan. Mullo Tursunjon madrasasi qurilishi bilan bog'liq ma'lumotlar turlicha keltirilgan. Masalan, Mullo Tursunjon madrasasi Jo'ra Barakayev va Yo'ldosh Haydarovlar Buxoro tarixi kitobida 1796—1797-yillarda qurilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilsa, Mullo Tursunjon madrasasi "Tarixi Buxoro va tarjumat ul-ulamo" asarida 1805—1806-yillarda bunyod etilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar ham uchraydi. Ushbu madrasa Buxoro shahridagi eng yirik va to'rtinchi darajadagi oliy toifadagi madrasalar sirasiga kiradi. Tursunjon madrasasi ikki qavatli bo'lib, 97 ta hujradan iborat. Ushbu madrasa O'rta Osiyo me'morchiligi uslubida bunyod etilgan. Madrasa pishiq g'isht, yog'och, tosh va ganchdan qurilgan. Madrasa hozirgi kunda Mehtar Ambar ko'chasida joylashgan. Tursunjon madrasasi Abdurauf Fitrat ma'lumotlariga ko'ra, yillik vaqf mablag'i 140 ming tangani tashkil etgan. Madrasada mudarrislar tomonidan dars o'tilgan. Tursunjon madrasasi har bir hujrasida ikki nafardan talaba istiqomat qilgan. Madrasa hozirgi kunda ham mavjud.

Buxoro amirligida XIX asr o'rtalarida me'morchilikda turar joylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. XIX asrda monumental binolarning, ayniqsa ichki qismlarini koshin, tosh, ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan. Naqqoshlikda ayniqsa islomiy naqshi rivoj topgan. Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi mahalliy memorchilikda rus uslublari ta'sirini kuchaytirgan. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Buxoro va Xiva me'morchiligida binolar konstruksiyalari yanada takomillashtirilgan.

Jome masjidlari saroy tipida serhasham qilib barpo etilgan, guzar, mahalla masjidlari qishga va yozga moljanlangan katta ayvonli qilib qurilgan. Bu davrda Buxoroda bunyod etilgan obidalardan biri Sitorai Mohi Xossa (forscha-yulduz oy makoni) - Buxorodan 4 km shimolda joylashgan bolib, mang'it sulolasi vakillari tomonidan bunyod etilgan saroy-bog' Sitorai Mohi Xossa saroyi ikki qismdan, ya'ni eski va yangi saroy hamda g'isht to'shalgan 3 hovlidan iborat. Eski saroy Buxoro turar joylari ruhida barpo etilgan bir - ikki qavatli uylardan iborat. An'anaviy uch qismi kompleks bo'lib, undagi dastlabki binolar Nasrulloxon (1826 -

1860) va Muzaffarxon (1860 –1885) hukmronligi davrida qurilgan. Abulohadxon (1885–1910) tomonidan esa 1892-yilda qurilish yakunlanib, saroy va bog‘ barpo etiladi. Eski saroy bir qancha vaqt Rossiyada rus me‘morlari ishi bilan tanishgan usta Hoji Hofiz boshliq Buxoro me‘morlari tomonidan qurilgan bo‘lib, shu tufayli Eski saroy tarixida Yevropa me‘morchiligining elementlarini ham kuzatish mumkin. Eski saroyning sharqida Amir Sayyid Olimxon hukmronligi (1910–1920) davrida Yangi saroy barpo etilgan. Bir qavatli bo‘lgan ushbu saroy “T” shaklida qurilgan. Yangi saroy bir qator binolar-oqsaroy, oynavand ayvon, kutish xonasi, amirning qabulxonasi, haram, masjid, xazina, hayvonotxona va boshqa xo‘jalik xonalaridan iborat. Yangi saroy Yevropa va mahalliy an‘anaviy me‘morchiligining aralashmasidan iborat bo‘lib, ko‘pgina xonalar rus muhandislari Sakovich va Margulislar rahbarligida bunyod etilgan. Faqatgina 1912–1914-yillarda qurilgan qabulxona va oqsaroy binolari Buxoro ustalari tomonidan bunyod etilgan. Amir qabulxonasi dahlizi devorlari to‘liq ganchli naqshlar bilan bezatilgan. Xonaning devorlaridagi guldon va gullar shakli usta Xasanjon tomonidan ishlangan. Qabulxonadan oqsaroy xonasiga o‘tilib, ushbu xona ikki yil davomida mashhur me‘mor usta Shirin Murodov rahbarligida (25-30 kishi) qurilib pardoqlangan. Oqsaroyning ko‘zgularidan iborat devoriga sharqning jimjimdor nafis naqshlari jozibador gullari oppoq ganch bilan ishlangan. Saroy Mang‘itlar davri arxitekturasi yorqin namunalaridan hisoblanadi

Xulosa qilib aytganda yurtimiz davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi ham o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lib, mang‘itlar hukmronligi davrida madaniy hayotda qator yuksalishlar bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Xususan, memorchilik sohasida ko‘plab muvaffaqiyatga erishildi. Bu davrga kelib ko‘plab yangi me‘moriy obidalar bunyod qilindi, rus me‘morchiligi san‘ati birmuncha o‘sha davrdagi obidalarda oz ifodasini topdi. Buxoro amirligi iqtisodiy va xo‘jalik hayotda biroz tushkunlikka tushishiga qaramay me‘morchilik ishlari to‘xtab qolmadi. Ko‘plab madrasa, masjid, xonaqoh, hammomlar, karvonsaroylar ham qurilgan. Buxoro amirligi davrida yaratilgan me‘moriy obidalar jahon amaliy san‘atiga o‘z hissasini bugunki kunda qo‘shib kelmoqda.

ОТАУЛЛА ХЎЖАЕВ ВА УНИНГ МАШХУР ЗАМОНДОШЛАРИ

Феруза Амонова,

Ўзбекистон ФА Тарих институти докторанти

Бухоро амирлигида XIX аср охири – XX аср бошларида миллий мулкдорлар қатламининг шаклланиши минтақада ўша даврда юз берган иқтисодий ва сиёсий омилларга боғлиқ бўлган. Бухоро амирлиги Россия империяси томонидан истило этилгач, амирликда маҳаллий халқ ичидан етишиб чиққан миллий сармоядорлар, савдосаноат эгаларининг шаклланиши жамиятда алоҳида аҳамиятга эга. Рус ва хорижлик бошқа сармоядорлар маҳаллий аҳоли вакиллари орасидан етишиб чиққан буржуазия вакиллари: савдогарлар, тадбиркорлар, маноатчи бойлар, пахта ва ёғ-мой заводлари эгалари билан иқтисодий ҳамкорлик қилишларига тўғри келган. Амирликда шаклланган ўзбек сармоядорларининг йирик вакиллари минтақадаги бошқа маҳаллий мулкдорлар яъни Туркистон генерал-губернаторлиги ва Хива хонлигидаги мулкдорлар билан ўзаро рақобат ва ҳамкорликда иш олиб боришган. Бухоро савдогарлари, қорақўлчи ва заводчи бойлар бу пайтда Россиядан ташқари Туркия, Афғонистон, Германия, Франция, Италия ва бошқа хорижий давлатларда ҳам фаолият юритганлар.